

Xitoylik oimlarning Zoologiya institutiga tashrifi

Joriy yilning 22-iyulidan 2-avgustiga qadar O'zR FA Zoologiya institutida Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti professorlari Shen Jun, Lei Fumin, Juanjuan Yuan, Runzhi Zhang, Gang Sang va Nankay universiteti Entomologiya instituti ilmiy xodimi Chunyan Jiang ilmiy safarda bo'ldilar.



Ushbu tashrifdan asosiy maqsad, Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti, Zoologiya muzeyida va O'zR FA Zoologiya institutida amalga oshirayotgan ilmiy-taqiqtishlari borasida fikr-mulohaza almashinish, hamkorlikni yanada mustahkamlash, shu bilan bir qatorda «CAS-TWAS Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti stipendiyasi dasturi»ga O'zbekistondan yosh iqtidorli zoolog oimlar nomzodlarini tavsiya etishdan iborat.

Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti oimlari O'zR FA Zoologiya instituti oimlari bilan zoologiya fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha o'zaro fikr almashdilar. Institut laboratoriyalari va Zoologiya kolleksiyasi bilan yaqindan tanishdilar. O'zR FA Zoologiya instituti tomonidan 25-30-iyul kunlari yusushtirilgan ekspeditsiyada mehmonlar Qashqadaryo va Samarkand viloyatlariga ham tashrif buyurdilar.

